



JADIDLAR TA'LIMI –TARAQQIYOT O'ZAGI

Jo'rayev Hamza Atoevich

Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Chirchiq davlat pedagogika universiteti

***Annotatsiya:** Barcha davrlarda ham har qanday darajadagi muammolarni bartaraf qilishning eng maqbul usuli – bu ta'lim-tarbiyani isloh qilish hisoblanadi. Bu masala jadidchilik harakatining g'oyalari ham o'z aksini topgan. Jadidlarning ma'rifatparvarlik qarashlarining asl maqsadi xalqni faqatgina diniy bilimlar bilangina emas, balki zamon talab qiladigan dunyoviy ilmlar bilan ham qurollantirish orqali hurriyatga yetaklash hisoblangan. Jadidlarning ta'lim sohasidagi yondashuvlari bugungi kunda ham o'z nufuzini yo'qotmagan. Mazkur maqolada buyuk ma'rifatparvar olim, sovet davrida Markaziy Osiyoda tan olingan ilk professor Abdurauf Fitratning ilm-fan sohasidagi xizmatlari, Buxoroda yangi usul maktablarini tashkil etishi, yoshlarni diniy ilm bilan birgalikda dunyoviy ilmlarni ham o'rganishga targ'ib qilganligi haqida ma'lumotlar tahliliy yoritilgan. Shuningdek, jadid adabiyotidagi ma'rifatparvarlik g'oyalari hamda uni rivojlantirish tendensiyalariga alohida ahamiyat qaratilgan. Negaki ta'lim dunyoni o'zgartirish uchun eng qudratli quroldir. Dunyoviy ilmlar nuqtai nazaridan qarajak, ziyolilar jamiyat rivoji, millat ma'rifati uchun mas'ul shaxslar hisoblanadilar. El-yurt taraqqiy qilishi uchun, eng avvalo, millat ozod va erkin bo'lishi lozim. Jadidlar bu haqiqatni to'g'ri va munosib anglagan holda Vatan ozodligi uchun ma'rifatni yuksaltirish yo'lini tanladilar.*

***Kalit so'zlar:** jadidchilik, ma'rifatparvarlik, diniy ta'lim, zamonaviy ta'lim, "yangi usul", o'quv, darslik, musiqa, Sharq, milliy maktab, qadriyatlar, ma'naviy meros.*

ОБРАЗОВАНИЕ ДЖАДИДОВ - ОСНОВА РАЗВИТИЯ

Жураев Хамза Атоевич

т.ф.ф.д. (PhD)

Чирчикский государственный педагогический университет

***Аннотация:** Во все времена лучшим способом решения проблем любого уровня является реформирование образования. Этот вопрос также отражен в идеях движения джадидов. Первоначальной целью просвещенных взглядов джадидов было привести народ к свободе, вооружив его не только религиозными знаниями, но и мирскими науками, требуемыми временем. Подход джадидов к образованию не утратил своего влияния и сегодня. В данной статье анализируются сведения о заслугах Абдурауфа Фитрата, крупного учёного-просветителя, первого признанного в Средней Азии профессора в советское время, в области науки, создании новометодических школ в Бухаре, а также о том, что он поощрял молодых людей изучать светские науки наряду с религиозными науками. Также особое значение придается идеям просветительства в современной литературе и тенденциям ее развития, потому что образование – самый мощный*



инструмент изменения мира. С точки зрения светских наук, интеллектуалы являются ответственными лицами за развитие общества и просвещение нации. Прежде всего, чтобы страна могла прогрессировать, нация должна быть свободной и независимой. Правильно осознавая этот факт, джадиды выбрали путь повышения просветительства во имя свободы Родины.

Ключевые слова: модернизм, просвещение, религиозное образование, современное образование, «новый метод», образование, учебник, музыка, Восток, национальная школа, ценности, духовное наследие.

JADID EDUCATION IS THE BASIS OF DEVELOPMENT

Djuraev Khamza Atoevich

Doctor of philosophy in historical sciences (PhD)

Chirchik State Pedagogical University

Abstract: *In all times, the best way to solve problems at any level is to reform education. This issue is also reflected in the ideas of the Jadidist movement. The original goal of the enlightened views of the Jadids was to lead the people to freedom by arming them not only with religious knowledge, but also with the worldly sciences required by the times. The Jadids' approach to education has not lost its influence even today. This article analyzes the information about the services of Abdurauf Fitrat, a great enlightened scientist, the first professor recognized in Central Asia during the Soviet era, in the field of science, the establishment of new method schools in Bukhara, and the fact that he encouraged young people to study secular sciences along with religious science. Also, special importance is attached to the ideas of enlightenment in modern literature and the trends of its development. Because education is the most powerful tool to change the world. From the point of view of secular sciences, intellectuals are responsible persons for the development of society and the enlightenment of the nation. First, the nation must be free and free in order for the country to progress. Realizing this fact correctly and appropriately, the Jaded chose the path of raising enlightenment for the freedom of the Motherland.*

Keywords: *modernism, enlightenment, religious education, modern education, "new method", education, textbook, music, East, national school, values, spiritual heritage.*

KIRISH

Har bir xalq o'z shaxsiy, milliy ruxiy madaniy qiyofasiga ega ekan, bu o'ziga xoslikning o'zagi-milliy ta'limdir. Milliy ta'lim har bir xalqning o'zi anglashi, tabiati, ma'rifiy darajasi, aql-idroki, ta'bi, xullas, tafakkuriga xos va mos bo'lmog'i lozim.

Hukumatning asosiy vazifasi yoshlarning ta'limi bo'lishi lozim. XX asr ulug' olimi Abdurauf Fitrat (1886-1938) ham tanazzulga yuz tutib borayotgan, bir vaqtlar dunyoning eng nurli go'shasi bo'lgan Turkiston va uning fojiasini o'z vaqtida angladi. Yurt uchun qayg'urdi, yondi, tutaqdi. "O'zining sharafli dovrug'ini dunyo xalqlarining quloqlariga zirak etib taqqan". Turkiston taraqqiyoti, uning ertasi



bo'lgan maorif, milliy ta'lim uchun ham tahsinga sazovor ezgu ishlar qildi. Oliy o'quv yurtlariga adabiyot tarixi va nazariyasidan darsliklar yozish barobarida, "ibtidoiy sinflarning so'ngi sinflari uchun ham "O'quv" darsligi yozdi. 71 sahifadan iborat ushbu maktab darsligi 1917 yil Bakuda nashr etildi. Fitrat katta umid bilan mazkur kitob muqovasida ushbu so'zlarni bitdi. "Turkiston maktablarida qabul bo'lsa, ikkinchi bo'lagi daho chiqadi"[1].

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

BXSR hukumati maorif va madaniyat sohalarini ham isloh qilishga e'tibor qaratdi. Bu borada, ayniqsa, Buxoro hukumati tarkibida tashkil qilingan Maorif nozirliqi, uning birinchi noziri Abdurauf Fitrat faollik ko'rsatdi. Inqilobiy qo'mitaning 1920 yil 20 oktabrdagi qarorida respublika hududidagi barcha eski maktablar va madrasalarni isloh qilish va ularda dunyoviy bilimlarni kengroq o'qitishni joriy qilish ko'zda tutildi. Ta'limda darslikning bosh fazilati yoshlarni fikrlashga o'rgatish, mustaqil mushohada qobiliyatini o'stirish, tafakkurni otabobolarning muqaddas madaniy merosi bilan boyitish, milliy ongini o'stirishga asoslanganligidir. Shu bilan bir qatorda yangi tipdagi maktablar tashkil qilish, aholi o'rtasida savodsizlikni tugatish ishlari ham boshlab yuborildi. 1923 yilga kelib Buxoro Respublikasida bunday maktablar soni 40 ta bo'lgan bo'lsa, 1924 yilda 69 ta umumiyta'lim, 4 ta musiqiy, 3 ta hunar maktablari, 13 ta internat faoliyat ko'rsatdi. Ularda jami 5604 nafar o'quvchi ta'lim oldi. Biroq bu raqam maktab yoshidagi bolalarning faqat 3,1% ini tashkil qilardi, xolos. Buxoroda xotin-qizlar ta'limiga ham e'tibor berilgani o'sha davr tarixi uchun ham, bugun uchun ham katta ibratdir. Ular uchun maxsus maktablar tashkil etilganligi katta yutuqlardan biri edi.

MUXOKAMA VA NATIJALAR

1923-1924 o'quv yilida respublikada ana shunday maktablardan 5 tasi mavjud bo'lib, ularda 306 ta xotin-qiz o'qigan edi. Umumiy ta'lim maktablarini darsliklar va boshqa adabiyotlar bilan ta'minlash maqsadida hukumat tomonidan xalq maorifi sohasiga ajratilayotgan mablag' hajmi ham ortib bordi. Masalan, 1922-1923 o'quv yilida davlat budjetidan 5.6% miqdorda mablag' ajratilgan bu raqam 1923-1924 o'quv yiliga kelib 21% ni tashkil etdi[2]. Fitrat Buxoroni ijtimoiy-madaniy hayotiy masalalarida faol ishtirok etdi. To'ra bobo Jo'raev o'sha yillarni shunday eslaydilar. Musiqa maktabi Fitratning o'ylaridan sal yuqoriroqda, Rahmonquli madrasasida joylashgandi. Fitrat domla biz, san'atga ishtiyoqmand yoshlarni maktablardan terib, musiqa bilim yurtiga jalb qilgan edilar. 1924 yillarda men afg'on rubobida Muxtor Ashrafiy dutorda, A. Ismatov, Hamidiy - changda soz chalish bo'yicha Domla Halim Ibodovdan saboq olgan edik.

Buxorodagi san'at maktablarida Domla Halim Ibodov bilan birga N.Nasriddinov Ma'rufjon Toshpo'latov tanburdan, Mirjon Ostonov - naydan, akamulloyi Toyirjon - dutordan, Haydarqul Hakimov g'ijjakdan, Mallaboev -



changdan, rus ayoli Yermolenko pianinodan saboq berardilar. Keyinchalik musiqa maktabi Sharq milliy maktabi deb ataldi[3].

Abdurauf Fitratning millatning ma'rifatli bo'lishi uchun qilgan xizmatlaridan eng asosiysi usuli jadid maktablarini tashkil qilishi desak to'g'ri bo'ladi. Fitrat usuli jadid maktabini din va iymon, Vatan va millat kelajagini ta'minlashning birdan-bir yo'li deb ko'rsatdi. Muhimi shundaki, muallif bugungi Ovrupa sivilizatsiyasining manbai Sharq ekanligini, ilm, axloqining, davlat va jamiyatni boshqaruvning asl andozalari islom madaniyatidan olinib, taraqqiy ettirilganini, uning asl egalari esa, o'z mulklarini tamom unutib, ovrupaliklarga muhtoj qolganini farangi tilidan rad qilib bo'lmaydigan dalillar bilan isbotlab berdi[4].

Xususan, 1922 yil 25 sentabrdan 25 oktabrga qadar Germaniyaga davolanishga borgan Fayzulla Xo'jaev Germaniyaning turli shaharlarida ilm-hunar olayotgan yuzdan ortiq turkistonlik yigit-qizlar bilan muloqotda bo'ladi. Ularning yashash sharoiti, o'qishlari bilan qiziqadi. Fayzulla Xo'jaev Berlindan turib, BXSR MIKga "Berlin maktublari" nomi bilan yo'llangan xatlar "Buxoro axbori" gazetasida 1922 yil 19 noyabda chop etilgan[5]. Jumladan, yosh mutaxassis kadrlarni iqtisodiy qo'llab-quvvatlash uchun 1924 yil 9 yanvarda Fayzulla Xujaev rahbarligida BXSR Xalq Nozirlar Sho'rosining yig'ilishi bo'lib o'tda. Ushbu yig'ilish bayonnomasida Germaniyada o'qiyotgan buxorolik talabalarga ko'pincha 15 so'm oltin miqdorida va 13 ta oliy ta'lim muassasida ta'lim olayotgan talabalarning har biriga 75 so'm oltin miqdorida stipendiya to'lash to'g'risida qaror qabul qilindi[6]. Ayrim hollarda esa talaba-o'quvchilar safini to'ldirish uchun BXSR nomidan Turkiston ASSRdan ham bolalar tanlov yo'li bilan ro'yxatga kiritilgan.

Fitrat yashagan davr siyosati erkin fikr, hur g'oyalarni butunlay inkor qilar edi. Shu bois jadidlar qattiq tazyiq ostiga olindi. Jadidlarning eng asosiy vazifasi hisoblangan milliy ozodlikka erishish, xalq bolalarini ma'rifatli qilish kabi ustuvor maqsadlar butunlay qoralanib, bu ziyolilar marksizmni inkor qilishda, o'tmishni ideallashtirishda, burjua millatchiligi g'oyalarni tashviq etishda ayblandi. Jadidchilik g'oyalarining asosiy tashviqotchilaridan bo'lgan Abdurauf Fitrat 1937 yil 24 aprelda O'z SSR NKVD boshlig'i Zagvozdin ko'rsatmasi bilan Davlat Xavfsizligi Boshqarmasi 4-bo'limining boshlig'i DX leytenanti Og'abekov tomonidan hibsga olindi va bir yarim yillik qiynoqlardan so'ng "millatchiligi" "aqsilinqilobchiligi", "xalq dushmani" "vatan xoini" "nemis, ingiliz razvedkasi ayg'oqchisi" kabi ayblovlar bilan SSSR Oliy sudi harbiy kollegiyasi tomonidan sud qilinib, 1938 yilning 4 oktabrida otib o'ldirildi. Qatl jazosi olimning jismoniy mahv etilishi edi, xolos. Fitratning ilmiy-adabiy merosi, yurt rivoji uchun amalga oshirgan islohotlari hozirgacha ham ahamiyatini yo'qotgan emas. Uning adabiyot nazariyasiga oid fikr-mulohazalari hozirgi tadqiqotlar uchun ham asos vazifasini



o‘tab kelmoqda. Fitrat asarlari u hayotlik paytlaridayoq yuksak baho olgan, boshqa tillarga tarjima qilingan[7].

XULOSA

Ta’limda bittagina erkinlik turini bilamiz bu ham bo‘lsa fikirlash erkinligi. Chunki ta’lim - dunyoni o‘zgartirish uchun ishlatishingiz mumkin bo‘lgan eng qudratli quroldir. Dunyoviy ilmlar nuqai nazaridan qarajak, olimlar jamiyat rivoji, millat ma’rifati uchun mas’ul shaxslar hisoblanadilar. El - yurt taraqqiy qilishi uchun, eng avvalo, millat ozod va erkin bo‘lishi lozim. Jadidlar bu haqiqatni to‘g‘ri anglagan holda vatan hurligi uchun harakat qildilar, bu yo‘lda qurbonliklar berildi, mash’um qatlarga guvoh bo‘lindi, ammo ularning faoliyati tarixdan munosib o‘rin egalladi.

ADABIYOTLAR:

1. Buxoro haqiqati 1994 yil 17 avgust №66
2. O‘zbekistonning yangi tarixi 2. O‘zbekiston Sovet Mustamlakachilik davrida.- Toshkent: 2000, - b. 246-247.
3. Buxoro haqiqati 1997 yil 2 aprel №27
4. Qosimov B. Milliy uyg‘onish Toshkent “Ma’naviyat” 2002 263 –b.
5. O‘zbekiston milliy arxivi, 48- fond, 1-ro‘yxat, 260-ish, 36- varaqa.
6. <https://www.uzanalytics.com/tarix/10076>.

